

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA OSIYO MAMLAKATLARI BILAN ALOQALAR

Alimbekova Ruxsora

Namangan Davlat Universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida Osiyo mamlakatlari bilan oʻrnatilgan siyosiy, diplomatik va iqtisodiy aloqalarni oʻrganishga bagʻishlangan. Maqolada Temuriylar davrida Xitoy, Fors, Hindiston va qoʻshni davlatlar bilan savdo, diplomatik elchilik va harbiy munosabatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Osiyo savdo yoʻllari va Ipak yoʻli orqali amalga oshirilgan iqtisodiy va madaniy almashinuvlar ham koʻrib chiqilgan. Tadqiqotda Temuriylar siyosiy strategiyasi va diplomatik faoliyati, shuningdek, savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishiga qaratilgan yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilingan.*

Kalit soʻzlar: *Xitoy, Amir Temur, Shuhrux Mirzo, Boysungʻur Mirzo, Mochin, Gʻiyosiddin Naqqosh, Xonbaliq.*

KIRISH

Temuriylarning Xitoy bilan XIV-XV asrlardagi iqtisodiy va siyosiy aloqalari Xitoyda Min sulolasi (1368-1644) davriga toʻgʻri keladi. Temuriylar va Xitoy oʻrtasidagi savdo-elchilik va diplomatik munosabatlarga oid maʼlumotlar oʻsha davrning bir qator yozma manbalarda qayd etilgan. Ular asosan, Xitoy solnomalari hamda fors tilida bitilgan manbalar boʻlib, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si, Muyiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorix”ida, Gʻiyosiddin Naqqoshning “Xitoy safarnomasi” kundaligi, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla us-saʼdayn” asari, Gʻiyosiddin Xondamirning “Habib us-siyar”ida, hamda Xofizi Abruning “Zubdat at-tavorixi Boysungʻuriy”, “Zayli Zafarnoma” hamda “Zayli Jome ut-tavorixi Rashidiy” kabi asarlarda ushbu elchilik munosabatlari haqida maʼlumotlar qayd etilgan. Sohibqiron Amir Temur 1389-yili bir necha bor yurushlardan soʻng, Moʻgʻulistonni oʻz davlati tarkibiga kiritgach, Movarounnahrda Xitoyga boradigan savdo yoʻllari xavf-xatardan holi boʻldi, Amir Temur davlati bilan Xitoy oʻrtasida elchilik va savdo aloqalari yoʻlga qoʻyildi.

Shu davrdan boshlab yana qadimiy Buyuk ipak yoʻli orqali savdo karvonlari qatnovi muntazam tus oldi. Bu esa Amir Temur va Temuriylar davlatining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini oshishi uchun muhim omil boʻldi.

Xitoy solnomalarida 1388-1398-yillarda ikki davlat orasida 9 marta elchilar bordi keldi qilgani qayd etilgan. Amir Temur tomonidan asos solingan xalqaro diplomatik aloqalar uning avlodlari davrida ham davom etdi. Shohrux Mirzo (1405-1447) davrida esa yanada kengaydi.

Asosiy qism

“Xitoy safarnomasi”da G‘iyosiddin Naqqosh: “1419-yil 24-noyabrda Shohrux Mirzo huzuridan Shodixo‘ja va Ko‘kcha boshchiligida, Boysung‘ur Mirzo huzuridan Sulton Ahmad va xoja G‘iyosiddin Naqqosh boshchiligida elchilar karvoni Xitoy yo‘l olgani va ushbu elchilik missiyasi 1422-yil 29-avgustda Hirotga qaytgani” – qayd etilgan.[Бўриев 2017: 19]. Boysung‘ur Mirzo G‘iyosiddin Naqqoshni Xitoyga yuborar ekan, unga maxsus topshiriq beradi. Topshiriqda Naqqoshga Xitoyga borguniga qadar bo‘lgan hamda Xitoydagi barcha ko‘rgan kechirganlarini o‘z kundaligiga yozib borish buyurilgan edi. Shunga ko‘ra Naqqosh Xitoy daryolarini, shaharlarini, ularning tuzilishi, yo‘llarini, yomlarni, shaharlar aholisi, ularning urfodatlari, dini, kiyim-kechagi, hunarmandchiligi, savdosi, bozori, Xitoy podshohi va ayonlari haqida barcha ma‘lumotlarini kundaligiga qayd etib boradi. G‘iyosiddin Naqqosh Xitoy poytaxti Xonbaliqqa yetgunicha, barcha shaharlarda elchilar kutib olinib, ro‘yxatdan o‘tkazilgani, va ularning sharafiga to‘y berilganini yozadi. Qiziqarli ma‘lumotlardan biri, Xonbaliqqa yaqinlashgan elchilarning olib kelayotgan sovg‘a-salomlari xitoylik ma‘murlar xodimlari tomonidan olinib, elchilar bilan birga sovg‘alarni podshoh huzuriga olib borishadi. Faqat Boysung‘ur Mirzoning Xitoy imperatoriga yuborgan sherinagina sherbon Pahlavon Salohiddinning o‘zi podshoh dargohiga yetkazgani qayd etiladi. Xitoy podshohi Shohrux Mirzo elchilaridan

Temuriylar saltanatida g‘allaning qimmat yoki arzonligi hamda Qora Yusufning Shohrux Mirzo bilan munosabatlari haqida qiziqadi.

“Habib us-siyarda” asarida keltirilishicha:“Hijriy 815-yil muharramning juma kunida (1412-yil 15-aprel) humoyunning xumo soyaboni yetib kelib «Bog‘i Zog‘on» uzra o‘z soyasi bilan uni bahramand qildi. Shunga yaqin paytda Xitoy xoni Voy Mang xonning elchilari kelib, u oliyjanob podshohning turli sanalarda yozilgan maktubini topshirdi. U maktub salom va tabrik so‘zlaridan tashqari Xalil Sulton Mirzoning maqtovga molik qilmishi va ishlaridan iborat edi. Hazrat xoqoni said elchilarga shohona izzat va hurmat ko‘rsatib, Oliy martabali shahzodalar va amirlar ularga to‘y qilib bersin! deb buyurdi. Xitoy elchilari ishlarini ham yetarli darajada tezlashtirib, Shayx Muhammad Xo‘shiyini ularga hamroh qilib, ul tomonga jo‘natdi. Va yana – hijriy 822 yil ramazon oyida (1419-yil 21-sentabr-20-oktabr oralig‘i) Ardasher tavochi Mochinning Doy Mang xonligi elchilari hamrohligida olampanoh dargohiga qaytdi. U 820 yilda Xitoyga ketgan edi. U podshohona sovg‘a-salomlar keltirish bilan birga, Doy Mang Xonning mehru muhabbat va yakdillikka to‘la maktubini ham yetkazdi. Hazrat Said esa Chinning Bi To va Mochin xoni elchilarini izzat-hurmat bilan qabul qildi va ularga juda ko‘p in‘omlar berdi. Elchilarning ba‘zilari Mirzo Ibrohim Sultonning oldiga — Sherozga ketdilar, bir guruhi esa Amir G‘iyosiddin Shoh Malik bilan uchrashish uchun Xorazmga qarab yo‘lga tushdilar. 823 yilda (1420-1421-yillar) hammalari birgalashib Samarqandga keldilar. Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon ularga katta to‘ydek bazm uyushtirdi va Xitoyga kuzatib qo‘ydi.”[Ҳазратқулов 2013: 400].

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla us-sa’dayn” asarida bu voqea shunday bayon etilgan — “ Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatlarning Chin-u Mochin va boshqa yerlari podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi.

(Xoqoni said tomonidan): «Shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san'at egasi o'z hunarini to'la zohir qilib do'konini bezatsin», — degan humoyun farmon sodir bo'ldi. Amirlar istiqbol rasmi bo'yicha (shahardan) tashqari chiqib elchilarning hammasini izzat-hurmat bilan shaharga olib kirdilar. (Bu) xuddi yoshlik chog'idek shodlikni orttiruvchi bir zamon va visol kechasidek g'amni tarqatuvchi bir on edi. Hazrat xoqoni saidning (Shohruh Mirzoning) farmoni bo'yicha Bog'i Zog'onga xuddi jannat bog'idek oro berib, Bahrom savlat, sher haybat yasovullar har kimning (o'ziga xos) joy va makon tayin qildilar. Hazrat xoqoni said balandlik avjidagi oftob singari xurshid chehra bilan saltanat taxtiga ko'tarildi. Ulug' amirlar elchilarni qo'l o'pish sharafiga yetkazib, tortiqlarni qo'ydilar va ularning so'zlarini arz qildilar. Xitoy podshohining maktubi quyidagi mazmunda edi. Xitoy podshohi maktubining surati: «Doy-Ming, podshohi muazzam, Samarqand diyoriga Shohrux bahodir uchun noma yubormoqda! Biz fikr qilamizki, xudovandi taolo yer bilan osmon o'rtasidagi jami xaloyiqni ularning har biri rohat va farog'atda yashasin deb yaratgan. Biz xudoyi taoloning madadkorligida ilohiy hukmga bo'ysunib jahondorlik qilib kelmoqdamiz. Shu sababli biz yaqinu yiroq orasida farq qilmaymiz, hammani bir tekis, barobar bilamiz. Bundan ilgari eshitgan edikki, sen oqil va kamolotga yetgan kishisan va boshqalardan ulug'roqsan, xudovandi taoloning amriga itoat qilib kelmoqdasan, raiyat va askarlarni parvarish qilib, ularning hammasiga ehson-u yaxshiliklar ko'rsatibsan; shu sababli biz behad shod bo'ldik. Alalxusus, kimxob va tarqu kiyimlarni yetkazsin uchun, elchi yubordik; elchi u yerga yetib borgach, sen bizning so'zlarimizga hurmat bilan qarab marhamatimizni yaxshi yuzaga chiqaribsan, katta-kichik hamma shodmon bo'libdilar va sen ham darhol elchi yuboribsan; elchilar sening salomingni, otlar ham u diyoy matolaridan iborat tuhfalaringni yetkazdilar. Sening do'stlik yo'lida ekanligingni ko'rdim: sen maqto'v va navozishga sazovor ekansan. Ilgariroq mo'g'ullar davri oxiriga yetgan edi. Sening otang Temur fumo xudovandi taoloning amriga itoat qilib, bizning ulug' podshohimiz Toy-Zuyga nisbatan yaxshi do'st bo'lib, elchilar va tuhfalarni qat' qilmagan. Shu sababli (Toy-Zuy) u diyorning (Xitoydagi) odamlariga omon berib, hammasini davlatmandlikka yetkazgan. Biz ham ko'rdikki, sen otangning himmat va ravishiga yaxshi mutobiat qilibsan. Endi Su- Jo'ning Kasoy hazorasi odamlaridan Du-Jixun-Boyni va Sun-Qung-Ji sadasi(dan) Dong-Chingni bir guruh kishilar bilan qo'shib, sadoqat zohir bo'lsin uchun tabriknoma, kimxob kiyim va targ'ular bilan yubordik. Bundan keyin ham odamlarni yuboramiz, toki ular bordikeldi qilsinlar va yo'llar kesilib qolmasin; ular o'z istaklaricha tijorat va kasb qilsinlar. Xalil Sulton sening birodarzodang; o'z tug'ishganlik haqqingni bajo keltirmog'ing uchun sen uni yaxshi tarbiyat qilishing kerak. Sen bizning sadoqat-u ra'yimizga hamkorlik qilishing lozim. Bildirib qo'ymoqchi bo'lganimiz ana shu». Bu maktubga qo'shib yana bir maktubni yuborgan edilar, unda jo'natilgan sovg'a-tuhfalar mufassal tarzda bitilgan edi. Yana bir

(maktub) yo'l xati qabilida bo'lib, u elchilar uchun edi. Uch maktubning har biri fors xati bilan fors tilida yozilgan va xuddi o'sha maktubda so'z mazmuni mo'g'ul xati bilan turkiy tilda yozilgan, yana o'sha maktubda o'sha mazmunni xitoy xati bilan o'z (xitoy) tilida yozgan.[Ўринбоев 2008: 145]. Xoqoni said hazratlari maktubni (o'qittirib) eshitib, uning nozik mazmunini o'tkir fikr bilan mulohaza qildi va maqsadlarini to'la tushunib olgach, hammani ishtirok etishga chaqirib, «Amirlar elchilar sharafiga to'y bersinlar», — degan farmon sodir bo'ldi. Xitoy elchilarining muhim ishlari to'la bitganidan keyin, ularga ijozat berilib, qaytib ketdilar. Shayx Muhammad Baxshiy elchilik rasmi bo'yicha ular bilan birga ravona bo'ldi. Xitoy podshohi to shu vaqtgacha islom dinini qabul qilmaganligi va shariat talabi bo'yicha ish tutmayotganligi sababli hazrat xoqoni said do'stlik yuzasidan:

«Zoraki u hidoyat nuri tufayli imonga musharraf bo'lsa», — degan umidda arab va fors tillarida yozilgan ikki nasihatnomani yubordi.”[Ўринбоев 2008: 325].

Xitoy bilan elchilik aloqalarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, Xitoy hukmdori o'z elchisiga uchta maktub yozdirib berib yuboradi. Bulardan birinchisi Shohruh Mirzoga atalgan bo'lib, o'zining asl maqsadi bayon qilingan maktubdir. Ikkinchisi esa Xitoy hukmdori yuborgan sovg'a-salomlar ro'yxatidir. Uchinchisi esa elchilarning o'ziga yo'l xaritasi tarzidadir. Unda ehtimol elchilar yurgan yo'llar va shaharlar ahvoli haqida yozib olib kelish (razvedka ma'lumotlari) buyurilgan bo'lishi mumkin. Elchilik maktublari fors, turkiy va xitoy tillarida yozilgan e'tiborga molik. Xuddi shunday Shohruh Mirzo ham elchilik maktublarida o'sha davr xususiyatiga xos ish yuritganligi ma'lum, uning maktubi fors tilida yozilganligi manbalarda aniq keltirilgan va yana ehtimol turkiy, xitoy tillarda va mo'g'ulchada ham yozilgan bo'lishi ham mumkin. u ham yuqoridagi uchtalik maktub an'anasida maktub jo'natgan. Elchilar xatlarning xavfsizligi va mahfiyligiga qattiq e'tiborda bo'lishgan. Shohruh Mirzo maktubining yana bir xususiyati esa Xitoy hukmdorini islom diniga o'tishga chorlab nasihatnoma yozishidadir.

Asarda yana — Xitoy podshohi Doy-Ming xon yana elchilar yuborib, ular (shu 820 yili) rabi' al-avval oyida (18 aprel - 17 may, 1417) (Hirotaga) yetib keldilar. Ularning boshliqlari Bi-Bochin, Tu-Bochin, Jot-Bochin va Tatq-Bochinlar uch yuz otlig bilan birga sovg'a-salomlar, shunqorlar, atlas va kimxoblar, targ'u , chinni asboblar va boshqalardan iborat ko'p hadyalarini keltirdilar; shahzodalar va og'olar uchun esa alohida podshohona hadyalar keltirgan edilar. Shuningdek, o'tmishdagi aloqalarni (yakunlovchi) bezak bo'ladigan va kelajakdagi o'zaro xayrxohlik uchun asos bo'ladigan so'zlarni o'z ichiga olgan bir maktubni ham keltirdilar. Mazmuni shunday: «Har ikki tomondan ham g'ayrilik va begonalik pardasi daf qilinmog'i, muvofiqatchilik, birdamlik eshigi ochilmog'i lozimdir, toki raiyatlar va savdogarlar o'z istak-ixtiyorlari bilan borib kelsinlar, yo'llar bexavotir bo'lsin». Birinchi marta (Xitoy) elchilari kelib, yana qaytib ketayotgan vaqtlarida (355) amir Sayyid Ahmad tarxon podshohga atab bir to'riq otni yuborgan edi. U ot podshoh nazarida g'oyat tahsinga sazovor ko'ringan va podshoh ot evaziga amir Sayyid Ahmadga ko'p hadyalar jo'natgan va o'sha otning

jilovini ikki tarafdin ikki axtochi tutib turgan holdagi (Xitoy) naqqoshlari chizgan rasmini ham yuborishgan edi.

Elchilarni mehmon qilib, kerak-yaroqlarini hozirlab, yuqorida aytilganidek, qaytarib yubordilar.

Onhazrat Ardasher tavochini elchilarga hamroh qilib Xitoy tomon jo'natdi. (sakkiz yuz) yigirmanchi (1417) yil oylari (voqealari orasida) Xitoy podshohi Don-Ming xon humoyun dargohga elchilar yuborganligi va hazrat xoqoni said Ardasher tavochini elchilarga hamroh qilib jo'natganligi haqida aytib o'tilgan edi.

Shu kunlarda Ardasher qaytib kelib, u viloyat ahvoli va (yana) elchilar kelganligini arzga yetkazdi. Ramazon oyining oxirida (21 sentyabr — 20 oktyabr, 1419) elchilar: Pi-Mochin va Xon-Mochin Hirotda keldilar va sovg'atortiqalar va maktub taqdim qildilar.

Xitoy podshohining maktubi (quyida) ularning qoidasi bo'yicha naql qilinadi. Sakkiz yuz) yigirma ikkinchi (1419) yil voqealari orasida hazrat xoqoni said Shodixoja boshchiligidagi elchilarni Xitoy mamlakatiga borishga tayin qilganligi haqida eslatib o'tilgan edi. Mirzo Boysung'ur (o'z nomidan) Sulton Ahmad bilan G'iyosiddin Naqqoshni (elchilarga qo'shib) yuborar ekan, Xoja G'iyosuddinga dorussaltana Hirotdan chiqish kunidan to qaytib kelish kunigacha har bir shahar va viloyatda yo'llarning qandayligi, viloyat va imoratlarning sifati, shaharlarning qonun-qoidalari, podshohlarning kuch-qudrati va ularning davlatni boshqarish ham siyosat uslubi, u shahar va diyorlarning ajoyibotlari va nomdor maliklarning fe'l-atvoriga oid nimaiki ko'rib bilsa, hammasini ro'znoma tarzida kunma-kun yozib borishi lozimligini g'oyat ta'kidlagan edi.

Bu yil, ya'ni (sakkiz yuz) yigirma beshinchi yili, o'n birinchi ramazonda (29 avgust, 1422) elchilar Hirotda qaytib keldilar va Xitoy podshohining sovg'a-tortiqalarini arzga yetkazdilar. [Ўринбоев 2008: 347].

Xulosa

Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida Osiyo mamlakatlari bilan o'rnatilgan aloqalar siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Temur o'zining harbiy salohiyati va strategik qarorlari orqali qo'shni davlatlar bilan diplomatik muloqotlarni rivojlantirdi, tinchlik shartnomalari va elchilik safarlari orqali ishonchli aloqalarni mustahkamladi.

Shuningdek, Osiyo savdo yo'llari, xususan Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo va iqtisodiy almashinuvlar Temuriylar davrida markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirdi.

Temuriylar sulolasi davrida o'rnatilgan aloqalar nafaqat hududiy barqarorlikni ta'minladi, balki keyingi asrlarda Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy va madaniy hamkorlikning poydevorini yaratdi.

Shu tariqa, Temur va Temuriylar Osiyo mintaqasidagi diplomatik va iqtisodiy aloqalarni samarali boshqarish orqali o'z davrining eng qudratli va ta'sirli hukmdorlaridan biri sifatida tarixga kirib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'iyosiddin Naqqosh. Xitoy safarnomasi kundaligi. Fors tilidan tarjimon: Bo'riyev.O – Toshkent. 2017. – 52.b.
2. Hazratqulov.J., Bekjonov.I. Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar, – Toshkent, O'zbekiston. 2013. – 400 b.
3. O'rinboyev.A. Abdurazzoq Samarqandiy, Matla us-sa'dayn Toshkent,O'zbekiston. 2008. – 849b.
4. Жумаевю Ф.И. Ҳабиб ус-сияр ва Матла ус-саъдайн асарларида дипломатик ва элчилик муносабатларининг акс эттирилиши. Шарқшунослик. –Тошкент. 2022.